

*Ushbu metodik qo'llanma institut Ilmiy – metodik kengashining 2010 yil
„6“ may 7 - sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsija etildi.*

Metodik qo'llanma "Mehnat muhofazasining maxsus kursi" fanini o'qitish dasturiga asosan tuzilgan.

Metodik qo'llanmada ishlab chiqarish xonalari umumiylar mexanik havo olmashtirish tizimlari ventilyator qurilmalarining titrash izolyatorlarini hisoblash uslublari va loyihalash tartibi bayon etilgan.

Ushbu metodik qo'llanma "Mehnat muhofazasining maxsus kursi" fanini o'r ganadigan 5860100 „Hayotiy faoliyat xavfsizligi" bakalavriat yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Tuzuvchi: **E.I. Ibragimov**, katta o'qituvchi.

Taqrizchilar: **Z.Yu. Yusupov** - Toshkent Davlat agrar universiteti
"Qishloq xo'jalik mashinalari, foydalanish
va ta'mirlash" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

R.R. Ergashev, dotsent, t.f.n.

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining 37-moddasida shunday deyiladi: - „Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash... huquqiga egadir”. Yuqoridagidan, hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonunlar va boshqa turli me'yoriy hujjatlarning qobul qilinib kuchga kiritilishi O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning faoliyat xavfsizligini turmushning barcha sohalarida ta'minlash umum davlat miqyosidagi masala darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi. Chunki insонning qadr – qimmatiga, hayotiga va sog'lig'iغا bo'lgan e'tibor har qanday jamiyat taraqqiyot darajasining asosiy o'chov mezonlaridan biridir.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan mashina va mexanizmlarning asosiy xususiyati – yuqori unum dorlik bo'lib, bu ko'rsatkich ularning konstruksiysalarini murakkablashtirish va ish rejimlarini kuchaytirish hisobiga erishiladi. Buning natijasida mashina va mexanizmlarda hamda ularning atrofida xatarli omillar, doimiy yoki davriy ravishda yuzaga keladigan xavfli zonalar hosil bo'ladi. Bu holat faoliyat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalaridan bittasi bo'lgan – ishlab chiqarishda jarohatlanishlarning oldini olish masalasini yuzaga keltiradi.

Inson o'z mehnatini mukammallashtirish va uning unum dorligini oshirish maqsadida mehnat qurollarini va ishlab chiqarish vositalarini doimiy va to'xtovsiz ravishda o'zgartirib boradi. Buning natijasida u doimiy ravishda yuzaga chiqadigan yangi zararli va xavfli omillar ta'siri ostiga tushib turadi. Bu holat ayniqsa hozirda, insoniyat XXI asrga qadam qo'yganda dolzarb muammoga aylandi. Xalq xo'jaligining turli sohalarida murakkab texnik qurilmalar va mashinalarning qo'llanilishi natijasida ishlovchilarda nerv-psixologik, statik yuklanishlar, nevroz holatlari, kasb kasalliklari ko'paydi, avariya va falokatlar sodir bo'lishi ortdi. Bular o'z navbatida ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash masalasining ahamiyatini oshiradi.

MMmk fanining maqsadi ishlab chiqarishda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish uchun mutaxassislarini nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash, texnologik jarayonlarda va mashina va mexanizmlarda avariylar sodir bo'lganda ishchi va xizmatchilarini to'g'ri harakat qilish va himoyalanishga o'rgatishdir.

Suv va qishloq xo'jaligi korxonalarida to'kis sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta'minlash, og'ir qo'l kuchi bilan bajariladigan mehnatni tugatish va kasb kasalliklarini butunlay yo'qotish chora-tadbirlarini amalga oshirish kerak, zero, mehnat qilish faqat yashash vositasi bo'lib qolmasdan, balki hayot talabi bo'lib qolishi kerak.

KURS LOYIHASINING MOHIYATI VA HAJMI.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini inson faoliyatining barcha sohalarida muhofazalashda 5860100 - „Hayotiy faoliyat xavfsizligi” bakalavriyat yo'naliши bo'yicha kadrlar tayyorlash asosiy o'rnlardan birini egallaydi. „Mehnat muhofazasining maxsus kursi” shu bakalavriat yo'naliши talabalari o'rganadigan mutaxassislik fanlaridan bittasidir.

Xavfsizlik vositalarini hisoblash va loyihalashni chuqur o'rganish maqsadida talabalar „Ishlab chiqarish xonalari havo almashtirish tizimidagi ventilyator qurilmasining titrash izolyatorini hisoblash va loyihalash” mavzusi bo'yicha kurs loyihasini bajaradilar.

Kurs loyihasini bajarish vaqtida bo'lg'usi bakalavr xavfsizlikni ta'minlash vositalarining yangilarini hisoblash va loyihalash, hamda mavjudlarini mukammallashtirish ishlarda yuzaga keladigan turli masalalarni yechish uslublarini egallashi lozim.

Fan bo'yicha olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish, hamda yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish maqsadida kurs loyihasini zamonaviy talablar asosida, ishlab chiqarish bilan bog'lab, ma'lum bir ijobji samara beradigan darajada ishlab chiqish lozim.

Kurs loyihasini har bir talaba alohida topshiriq bo'yicha bajaradi.

1. Kurs loyihasining tarkibi.

Kurs loyihasi asosan quyidagi bo'lilmarni o'z ichiga oladi:

- hisob-loyiha bo'limi;
- konstruktorlik bo'limi.

Yuqoridagi bo'lilmalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

1.1. Kurs loyihasining hisob-loyiha bo'limi.

Bu bo'lim 20-25 bet qo'lyozma shakldagi hisoblash-tushuntirish yozuvidan, zarur rasmlar, jadvallar va grafiklardan iborat bo'ladi. Yozuv A4 formatdagi oq qog'ozning bir tomoniga chapdan 30 mm, tepa va pastdan 20 mm, chapdan 15 mm ochiq joy qoldirilib, ko'k yoki qora rangdagi siyohda yoziladi. Rasmlar, jadvallar, grafiklar, ilovalar va formulalarga tartib raqamlari berilishi kerak.

1.2. Kurs loyihasining konstruktorlik bo'limi.

Bu bo'lim 2 ta A1 formatli qattiq qog'ozdag'i (vatmandagi) chizmaldan iborat bo'ladi. Barcha chizmalar me'yoriy hujjatlar talablariga amal qilinib qalamda chizilgan bo'lishi kerak:

- birinchi qattiq qog'ozda havo almashtirish tizimining hisoblangan va loyihalangan ventilyator qurilmasi umumiy ko'rinishi ikkita proyeksiyada beriladi;
- ikkinchi qattiq qog'ozda hisoblangan titrash izolyatorining yig'ma chizmasi va asosiy detallarining chizmalarini zarur kesim hamda qirqimlar bilan beriladi.

2. Kurs loyihasi hisoblash-tushuntirish yozuvining tarkibi taxminan quyidagilardan iborat bo'ladi:

Titul varaqi.

Topshiriq.

Mundarija.

Kirish.

1. Ventilyator qurilmasining tasnifi.

2. Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorini hisoblash

2.1. Titrash va uni tavsiflovchi asosiy kattaliklar.

2.2. Titrashdan himoyalanish usullari va vositalari.

2.3. Titrash izolyatorlarini (amortizatorlarni) tanlash bo'yicha asosiy qoidalar.

2.4. Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorini hisoblash.

2.5. Olingan ko'rsatkichlar asosida titrash izolyatorining konstruktiv chizmasini chizish.

3. Xulosa.

4. Foydalanilgan adabiyotlar.

ASOSIY QISM

1. Ventilyator qurilmasining tavsifi

Ventilyator qurilmasi tarkibiga ventilyator, elektr dvigateli va zarur hollarda ularni bir-biriga ularash jihozlari (mufta yoki remenli uzatma) kiradi.

Ventilyator konstrutiv tuzilishi va havoga harakat uzatish uslubi bo'yicha markazdan qochma va o'q yo'nalishitidagi turlarga bo'linadi. Markazdan qochma ventilyatorlar yuqori bosim hosil qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklari sababli asosan katta uzunlik va tarmoqlanishga ega bo'lgan havo olmashtirish qurilmalarida qo'llaniladi, o'q yo'nalishitidagi ventilyatorlar esa past bosim hosil qilish xususiyati tufayli qarshiligi kam bo'lgan qisqa qurilmalarda ishlatalidi. Shu sababli havo olmashtirish tarmoqlarida asosan markazdan qochma ventilyatorlari keng qo'llaniladi.

Ventilyator hisobi unumdoorligi va to'la hisobi bosimi bo'yicha maxsus nomogramma yoki xarakteristikalaridan tanlanadi (1.1- ilova). Bu xarakteristikalar ventilyator unumdoorligi bilan bosimi, foydali ish koefitsiyenti (fik) va aylanishlar soni o'rtaсидаги о'заро bog'ланишларни ko'rsatadi.

1. Ventilyatorni tanlash unumdoorligi quyidagi ifodadan topiladi:

$$L_v = k \cdot L_h, \quad m^3/\text{soat} \quad (1.1)$$

bu yerda k – koefitsiyent, quvurlar uzunligi;

50 metrgacha bo'lsa $k=1,1$,

50 metrdan katta bo'lsa $k=1,15$;

L_h – barcha xonalar uchun hisoblab topilgan havo olmashtirishlar jadalliklarining yig'indisi, m^3/soat .

2. Ventilyatorni tanlash bosimi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$R_v = \delta \cdot R_h \quad (1.2)$$

bu yerda δ – koefitsiyent, $\delta=1,1$;

R_h - havo olmashtirish tizimi uchun hisoblab topilgan to'la bosim, Pa.

Agarda ventilyatorni tanlash uchun topilgan L_v va R_v birorta ham ventilyator xarakteristikasiga to'g'ri kelmasa, grafikdan (1.1- ilova) eng yaqin ventilyator tanlab olinadi va tanlangan ventilyatorning aylanishlar soni o'zgartirilib, kerakli unumdorlik va bosim hosil qilinadi.

Ventilyator aylanishlar soni o'zgartirilganda uning unumdorligi, bosimi va quvvatining o'zgarishlari quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$L_2 = L_1(n_2/n_1) \quad (1.3)$$

$$P_2 = P_1(n_2/n_1)^2 \quad (1.4)$$

$$N_2 = N_1(n_2/n_1)^3 \quad (1.5)$$

bu yerda n_1 – xarakteristika bo'yicha aylanishlar soni;

n_2 – o'zgartirilgan aylanishlar soni;

L_1, P_1, N_1 – xarakteristika bo'yicha unumdorlik, bosim va quvvat;

L_2, P_2, N_2 – hisoblangan unumdorlik, bosim va quvvat.

Ventilyator va elektr dvigatelining ularishi to'g'ridan to'g'ri (elektrventilyator), mufta orqali yoki tasmal bo'lishi mumkin.

Ventilyatorning talab qiladigan quvvati quyidagi ifodadan topiladi:

$$N_B = \frac{L_B \cdot P_B}{3,6 \cdot \eta_B \cdot \eta_Y} \cdot 10^{-6}, \text{ kVt} \quad (1.6)$$

bu yerda η_V – xarakteristika bo'yicha ventilyatorning foydali ish koefitsiyenti;

η_U – uzatmaning foydali ish koefitsiyenti:

elektrventilyator uchun 1,0;

muftali uzatma uchun 0,98;

tasmal uzatma uchun 0,95.

Elektr dvigatelining zaruriy quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$N_E = m \cdot N_B \text{ kVt}, \quad (1.7)$$

bu yerda: m – elektr dvigateli quvvatining zahira koefitsiyenti, u quyida keltirilgan, (1-jadval).

Markazdan oqchma ventilyatorlarida ishlatalidigan elektr dvigatelining zahira koefitsiyenti 1-jadval

Elektr dvigateli validagi quvvat, kVt	0,5 gacha	0,5...1,0	1,0...2,0	2,01 katta
Zahira koefitsiyenti, m	1,5	1,3	1,2	1,1

Ventilyatorning talab qiladigan quvvati, aylanishlar soni va elektr dvigatelining zaruri quvvati bo'yicha elektr dvigatelining turi 1.2 - ilovadan tanlanadi va ma'lumotlar 2-jadvalga kiritiladi:

Elektr dvigateli tipi –

Elektr dvigateli massasi –

Aylanishlar soni –

Elektr dvigateli quvvati –

2- jadval

Elektr dvigatelining gabarit va o'rnatilish o'chamlari (mm)

Tur o'chami	Umumiy uzunligi, L		2s ₁	2s	V ₁	N	h	d	t
	L2	AO2							

Ventilyator qurilmasi tarkibiga ventilyator, elektr dvigateli va zarur hollarda ularni bir-biriga ularash jihozlari mufta yoki remenli uzatmalar kiradi. Ventilyator va elektr dvigatelining ularishi to'g'ridan to'g'ri (elektrventilyator) bo'lishi mumkin. Bunda ventilyator g'ildiraki to'g'ridan to'g'ri elektr dvigatelining valiga o'rnatiladi.

Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorini hisoblashda yuqorida keltirilgan elementlar turi va ularning aylanuvchi qismlarning massasini ($m_{ay.q}$, kg) bilish kerak bo'ladi. Aylanuvchi qismlarning massasini maxsus spravochniklardan [17, 18], yoki gabarit o'chamlarini va yasalgan materiali turini bilgan holda ma'lum ifodalar orqali aniqlashimiz mumkin.

Ventilyator qurilmasi tarkibiga kiruvchi elementlar aylanuvchi qismlarining aniqlangan massalari quyidagi 3-jadvalga kiritiladi.

3-jadval

Ventilyator qurilmasi tarkibiga kiruvchi elementlar aylanuvchi qismlarining massalari (kg)

Aylanuvchi qism nomi	Massasi, kg
Elektr dvigateli rotorı	
Ulovchi mufta	
Ventilyator g'ildiraki	
Elektr dvigateli rotorı validagi shkiv	
Ventilyator g'ildiraki validagi shkiv	

2. VENTILYATOR QURILMASINING TITRASH IZOLYATORINI HISOBISH

2.1. TITRASH VA UNI TAVSIFLOVCHI ASOSIY KATTALIKLAR

Mashina, mexanizm, detal va mexanik tizimlarning og'irlik markaziga yoki qandaydir bir birlamchi holatiga nisbatan qiladigan tebranma harakati titrash (vibratsiya) deb ataladi. Muvozanatlashirilmagan kuchlar ta'siri titrash yuzaga kelishining asosiy sababi hisoblanadi. Muvozanatlashirilmagan kuchlar hosil bo'lishining asosiy manbalari esa quyidagilardir:

- aylanish markazi og'irlik markazi bilan mos tushmagan muvozanatlashirilmagan aylanuvchi massalar;
- mashina va mexanizmlar ishlayotgan vaqtida yuzaga keluvchi zARBaviy ta'sirlar (shponkali birikma, tishli harakat uzatish, mustali birikma);
- mashina qismlari aylanishlar sonining o'zgarishiga olib keluvchi ishqalanish jarayonlari (ishqalanish tormozlari, ilashish muftalari);
- turbulent havo oqimining har xil gidravlik qarshiliklar bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keluvchi aerodinamik kuchlar;
- mashina va mexanizmlarning notebris yuzada harakat qilish holatlari va h.k.

Titrayotgan yuzaga tegish yoki u bilan bog'lanib qolish oqibatida titrash inson tanasiga hamda uning boshqa qismlariga uzatiladi. Titrashning inson tanasiga yoki uning qismlariga ta'sir qilishi natijasida "titrash kasalligi" va boshqa har xil ko'ngilsiz oqibatlar yuzaga keladi.

Titrash fizik hodisa sifatida quyidagi kattaliklar bilan tavsiflanadi:

a) **tebranish chastotasi** – $g=1/T$, G_s , vaqt birligi ichidagi to'la tebranishlar soni, tebranish davriga teskari proporsional bo'lgan kattalik. Tebranish davri, ya'nini bitta to'la tebranishga ketgan vaqt.

b) **tebranish amplitudasi (ko'chishi)** – A , m ; tebranayotgan nuqtaning og'irlik markazi, o'qi yoki qandaydir bir birlamchi holatga nisbatan eng katta ko'chishini tavsiflaydi. Bu kattalik asosan titrashning tarqalish maydoniga ta'sir ko'rsatadi.

v) **titrash tezligi** – v_t , m/s , vaqt davomida o'zgaruvchan kattalik. Titrashni o'lhashda uning eng katta miqdori quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi

$$v_t = 2\pi g \cdot A, \quad m/s, \quad (2.1)$$

g) **titrash tezlanishi** – w_t , m/s^2 , vaqt davomida o'zgaruvchan kattalik. U quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$w_t = 4\pi^2 g^2 \cdot A, \quad m/s^2 \quad (2.2)$$

d) **titrash tezligi va tezlanishining logarifmik darajalari** – L_v , L_w , dB . Bu kattaliklar titrash tezligi va tezlanishi absolyut miqdorining o'zining biror bo'sag'aviy miqdoriga nisbatining logarifmi bilan aniqlanadi, va logarifmik birlik – detsibelda (dB) o'lchanadi

$$L_V = 20 \lg \frac{v_T}{v_0} , \text{ dB} \quad (2.3)$$

bu yerda: v_t - titrash tezligining haqiqiy miqdori, m/s;
 $v_0 = 5 \cdot 10^{-8}$ m/s - titrash tezligining bo'sag'aviy miqdori.

$$L_w = 20 \lg \frac{w_T}{w_0} , \text{ dB} \quad (2.4)$$

bu yerda: w_T - titrash tezlanishining haqiqiy miqdori, m/s²;
 $w_0 = 3 \cdot 10^{-4}$ titrash tezlanishining bo'sag'aviy miqdori, m/s².

2.2. TITRASHDAN HIMOYALANISH USULLARI VA VOSITALARI

Transport, o'ziyurak, ko'chmas (statsionar) mashinalar, mexanizmlar va qo'l asboblari boshqaruvchilariga ta'sir qiluvchi titrashdan himoyalanish usul va vositalari GOST 12.4.046-78 tomonidan ishlab chiqilgan va sinflangan.

Titrashdan himoyalanishning quyidagi usul va vositalari mayjud:

1) titrashni manbaning o'zida kamaytirish:

- a) mashina va mexanizmlar konstruksiyasini mukammallashtirish;
- b) texnologik jarayonlarni o'zgartirish (yuklanishini);
- v) titrashni demperlash;
- g) dinamik so'ndirgichlarni qo'llash;
- d) harakatlanuvchi qismalarni aniq markazlashtirish va disbalansni bartaraf qilish;
- ye) rezonans holatlarini bartaraf qilish mexanizmlarini qo'llash;
- yo) mexanizmlardagi oraliqlarni (azorlarni) aniq sozlash;
- j) yuzalarni titrashni yutish qoplamlari bilan qoplash va h.k.;

2) titrashni tarqalish yo'lida kamaytirish:

- a) titrashni izolyatsiyalash (tebranuvchi tizimga qo'shimcha qayishqoq element kiritish bilan titrashni asosga uzatishni susaytirish, masalan, rezinali, gaz va suyuqlikli, prujinali va boshqa amortizatorlarni qo'llash);
- b) shaxsiy himoya vositalarini qo'llash (maxsus oyoq kiyimlari va qo'lqoplar),

3) tashkiliy va sanitari chora-tadbirlarni qo'llash:

- a) ratsional ish rejimini ishlab chiqish;
- b) ishda tanaffuslar tashkil qilish;
- v) tibbiy vositalarni qo'llash;
- g) tibbiy ko'riklardan o'tish va h.k.

2.3. TITRASH IZOLYATORLARINI (AMORTIZATORLARINI) TANLASH BO'YICHA ASOSIY KO'RSATMALAR

Ishlayotgan katta massali mashinalarda yuzaga keladigan titrash deyarli 1500 metr radiusgacha tarqalib, bino va inshootlar ostidagi grunt va fundamentlarda notejis zichlanish va cho'kish holatlarini keltirib chiqaradi. Buning natijasida ularning konstruksiyasidagi elementlarida ortiqcha zo'riqishlar va kuchlanishlar hosil bo'ladi. Kuchlanishlar esa oxir oqibat buzilishlar, avariylar va falokatlar yuz berishining asosiy sababchisi bo'lishi mumkin.

Titrashning zararli ta'sirini bartaraf qilish uchun mashina va mexanizmlar, qurilmalar va uskunalar amortizatorlarga yoki asosdan izolyatsiyalangan maxsus fundamentlarga o'rnatiladi. Amortizatorlar po'lat prujinali, rezinali, rezina - prujinali, asbestli, voylokli va ularning kombinatsiyalaridan iborat boshqa turdag'i bo'lishi mumkin.

Titrash manbasidan asosga uzatilayotgan tebranishlar amplitudasini kamaytirish amortizatorlarni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsaddir.

Amortizatorlarni tanlash, qabul qilish va amalda qo'llash birlamchi hisob-kitoblar asosida olib borilishi lozim. Amortizatorlarning to'g'ri tanlanishi natijasida mashinaning xususiy tebranishlar chastotasi yetarli darajada kamaytiriladi va asosga dinamik kuchlar uzatilishi keskin pasayadi. Agarda amortizator noto'g'ri tanlansa rezonans, ya'ni mashina ishlayotganda xususiy va majburiy tebranishlar chastotalarining deyarli bir - biriga teng bo'lib qolish holati, kelib chiqishi mumkin. Rezonans holatida mashinadan asosga uzatilayotgan dinamik kuchlar keskin oshadi, ya'ni amortizatorlarni qo'llashdan ko'zlangan maqsadga erishilmaydi.

Titrashni izolyatsiyalashning samaradorligini baholash asosga kuchni uzatish koeffitsiyenti bo'yicha olib boriladi:

$$k_y = F_2 / F_1, \quad (2.5)$$

bu yerda F_1 - mashinaga davriy ravishda ta'sir qiluvchi kuch amplitudasi;

F_2 - amortizatorlar orqali asosga uzatiladigan davriy kuch amplitudasi.

Asosga kuchni uzatish koeffitsiyenti qanchalik kichik bo'lsa, titrash izolyatorining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Asosga kuchni uzatish koeffitsiyenti k_u , asosan, majburiy tebranish hosil qiluvchi kuch chastotasining (g) sistemaning (mashina, rama va amortizatorlar to'plami) vertikal o'q bo'ylab qiladigan xususiy tebranishlar chastotasiga (g_{oz}) nisbatiga bog'liq bo'ladi. Agarda so'nishni hisobga olmasak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$k_y = \frac{1}{\frac{f^2}{f_{oz}^2} - 1}, \quad (2.6)$$

bu yerda g - majburiy tebranish hosil qiluvchi kuch chastotasi;

g_{oz} - uskunaning vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlar chastotasi.

Yuqoridagi ifodani tahlil qilish natijasida uchta holatni farqlash mumkin:

1. $g < g_{oz}$, bunda $k_y \approx 1$, bu holatda sistema qayishqoqlik qarshiligiga ega bo'ladi ($k_y / 2\pi g$) va kuch statik kuch singari ta'sir ko'rsatadi, hamda u asosga to'la uzatiladi;
2. $g = g_{oz}$, bunda rezonans holati yuzaga keladi, tebranish amplitudasi va asosga uzatilayotgan dinamik kuchlar keskin oshadi;
3. $g > \sqrt{2} \cdot g_{oz}$, izolyatsiya qilinayotgan sistema inersiyaviy qarshilik ko'rsatadi va $k_u < 1$ bo'ladi, bunda titrashni izolyatsiyalash samaradorligi chastota ko'tarilishi bilan oshadi. Demak. titrash izolyatorlarining samarali ishlash shartini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$g_{oz} < g / \sqrt{2}$$

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadi, g / g_{oz} chastotalar nisbati 2,5; 3; 4 va 5 miqdorlarga teng bo'lganda, titrashni izolyatsiyalashning samaradorligi mos ravishda 81; 87,5; 93 va 96 % teng bo'ladi.

Uskunaning vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlar chastotasini (f_{oz}) quyidagi ifodadan aniqlash mumkin, Gs

$$f_{oz} = 0,5 / \sqrt{x_{cm}}$$

bu yerda x_{cm} - titrash izolyatorining statik cho'kishi, m.

Titrash izolyatorining statik cho'kishini quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin:

$$x_{cm} = Q / k_z = h_u \sigma / E$$

bu yerda Q - mashina va rama og'irligi, N;

k_z - titrash izolyatorining vertikal yo'nalishdagi bikrлиgi, N/m;

h_u - titrash izolyatorining balandligi, m;

σ - titrash izolyatori materialidagi kuchlanish, Pa, $\sigma = Q / S$.

S - hamma titrash izolyatorlarining yuzasi, m²;

E - amortizatorning qayishqoqlik moduli, Pa.

Agarda titrash izolyatori materialining dinamik elastiklik modulli uning statik elastiklik modulidan farq qilsa, f_{oz} haqiqiy miqdori quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$f_{oz} = 0,5 \sqrt{\frac{E_{dum}}{x_{cm} \cdot E_{cm}}}, \quad \text{Gs} \quad (2.7)$$

bu yerda E_{dum} , E_{cm} - mos ravishda titrash izolyatori materialining dinamik va statik elastiklik modullari, Pa.

Titrashni izolyatsiyalash samaradorligi yuqori bo'lishi uchun mashina va rama og'irligi mumkin qadar katta bo'lishi kerak. Chunki bunda sistemaning

xususiy tebranish chastotasi pasayadi, va u o'z navbatida asosga kuchni uzatish koeffitsiyentining (k_y) kamayishiga olib keladi.

Amortizatorlar yetarli darajada ichki ishqalanish qarshiligidagi, hamda temperatura, namlik, nest mahsulotlari va boshqa agressiv moddalar ta'siriga chidamli bo'lishi lozim.

Prujina yoki rezina yumshoq bo'lib statik cho'kishi qanchalik katta bo'lsa amortizatorlar samaradorligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Lekin, ishlab chiqarish sharoitida amortizatorlar bikrili yetarli darajada yuqori bo'lishi talab etiladi, aks holda uskunaning barqaror turishi buziladi.

Amortizatorlar turini tanlash majburiy tebranishlar chastotalariga bog'liq holda olib boriladi. Yuqori chastotali (≥ 12 Gs) tebranishlarda asosan rezinali, past chastotalilarda (4 - 6 Gs boshlab) asosan rezina - prujinali, keng diapazonlarda esa prujinali amortizatorlar ishlatalidi (2.1 -ilova).

Prujinali amortizatorlar. Prujinali amortizatorlarni hisoblash prujina tayyorlanadigan sim d diametrini (m) va i cho'lg'amlari sonini aniqlashdan iboratdir:

$$d = \sqrt{\frac{16P \cdot r}{\pi \tau_{ik}}}, \quad (2.8)$$

$$i = \frac{d^4 G}{64r^2 k_z}, \quad (2.9)$$

bu yerda k_z - amortizator bikrili, N/m; τ_{ik} - rezinali baholash asos;

P - uskuna og'irligi, N;

τ_{ik} - buralishda eng yuqori yo'l qo'yiladigan kuchlanish (po'lat uchun

$$\tau_{ik} = 4,3 \cdot 10^8, \quad \text{Pa};$$

G - prujinaning siljishdagiligi qayishqoqlik moduli, ($G = 8 \cdot 10^{10}$), Pa;

r - prujina o'ramlari o'rta radiusi, m.

Rezinali amortizatorlar. Rezinali amortizatorlarni hisoblash ularning balandligini, ko'ndalang o'lchamlarini va sonini aniqlashdan iboratdir.

Rezina amortizatorning ishchi balandligi quyidagicha topiladi:

$$H_u = \frac{E_{duu}}{\sigma} \cdot x_{cm}, \quad \text{m} \quad (2.10)$$

bu yerda E_{duu} - rezinaning dinamik qayishqoqlik moduli, Pa;

σ - rezinadagi hisobiy statik kuchlanish, Pa; $\sigma = P/S$;

S - rezina titrash izolyatorlarining yig'indi ko'ndalang kesimi yuzasi, m^2 ;

P - rezina titrash izolyatorlarining hammasiga to'g'ri keladigan yuklama, N.

2.4. VENTILYATOR QURILMASINING TITRASH IZOLYATORINI HISOBBLASH

Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorlari osma va tayanch variantlarda olib borilishi mumkin. Quyida faqat tayanch variantni hisoblash tartibi keltirilgan.

Titrashi izolyatsiyalishi zarur bo'lgan ventilyator qurilmasi ramasi bilan birgalikda katta massali fundamentlarga o'rnatilishi lozim. Fundamentlar katta massali deb hisoblanadi, qachonki $\Omega > 10$ sharti bajarilsa. Bu yerda Ω quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\Omega = \frac{1 - \left(\frac{f_o}{f} \right)^2}{\frac{4m}{M}} \quad (2.11)$$

bu yerda f - majburiy tebranish hosil qiluvchi kuch chastotasi, Gs;

f_o - fundamentning vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlar chastotasi, (g ga eng yaqin bo'lgani) Gs;

m - ventilyator qurilmasining massasi, kg;

M - fundamentning massasi, kg.

Ventilyator qurilmasini ramasi bilan birgalikda fundamentga o'rnatishga ruxsat qilinadi, qachonki $\Omega > 1$ sharti bajarilsa.

Titrash izolyatorlari sifatida prujinali yoki rezinali amortizatorlarni qabul qilish mumkin. Ventilyator qurilmasining aylanishlar soni 1800 ayl/min kichik bo'lsa prujinali amortizatorlarni rezina taglik bilan, agarda katta bo'lsa prujinali yoki rezinali amortizatorlarni, qabul qilish tavsiya qilinadi.

2.4.1. Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorini hisoblash tartibi.

Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorini hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Titrashni izolyatsiyalashning talab qilinadigan samaradorligi aniqlanadi.

Titrashni izolyatsiyalashning talab qilinadigan samaradorligi U_t , markazdan ochma ventilyatorlar aylanishlar soniga bog'liq holatda, quyidagi 3-jadvalda keltirilgan ko'rsatmalar asosida aniqlanadi (% yoki dBA).

3-jadval

Titrashni izolyatsiyalashning talab qilinadigan samaradorligi U.

Markazdan qochma ventilyatorlar aylanishlar soni, (ayl/min)	%	dB(A)
800 yuqori	95	26
500...800	90...95	20...26
350...500	85...90	17...20
200...350	70...80	11...17

2. Majburiy tebranish hosil qiluvchi kuch chastotasi hisoblanadi:

$$g = n/60, \quad Gs \quad (2.12)$$

bu yerda n – markazdan qochma mashina yoki elektr dvigatelining aylanish tezligi, ayl/min.

Agarda ikkita, markazdan qochma mashina va elektr dvigatelining, majburiy tebranish hosil qiluvchi kuch chastotalari mavjud bo'lsa, keyingi hisoblashlar uchun kichik miqdorga ega chastota olinadi.

3. Ventilyator qurilmasining vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlari chastotasing g_{oz} yo'l qo'yiladigan qiymatlari aniqlanadi:

a) ventilyatorning aylanishlar soni minutiga 350...500 bo'lsa:

$$g_{oz} \leq g/3,5; \quad g_{max} \leq g/2,3, \quad Gs \quad (2.13)$$

b) ventilyatorning aylanishlar soni minutiga 500...1000 bo'lsa:

$$\text{agarda } \Omega > 10 \text{ bo'lsa} \quad g_{oz} \leq g/4; \quad g_{max} \leq g/2,5, \quad Gs \quad (2.14)$$

$$\text{agarda } 1 < \Omega > 3 \text{ bo'lsa} \quad g_{oz} \leq g/6; \quad g_{max} \leq g/4, \quad Gs \quad (2.15)$$

v) ventilyatorning aylanishlar soni minutiga 1000 yuqori bo'lsa g_{oz}

2.2 ilovaning 5-rasmida keltirilgan grafikdan olinadi (grafikdagi U – titrashni izolyatsiyalash samaradorligi), bu holatda

$$g_{max} = 1,5 \cdot g_{oz}, \quad Gs \quad (2.16)$$

bu yerda g_{max} – ventilyator qurilmasining 6-ta xususiy tebranishlar chastotasidan eng kattasi.

4. Izolyatsiyalanayotgan ventilyator qurilmasining tebranishdagi ko'chish amplitudasining eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymati (A_d) aniqlanadi.

Ventilyator qurilmasi ishlaganda yuzaga keladigan tebranish vaqtida

ko'chish amplitudasining eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymati (A_d) aylanish tezligiga bog'liq holda quyidagi 4-jadvaldan aniqlanadi.

4-jadval

Yo'l qo'yiladigan ko'chish amplitudası, A_d , mm

Aylanish tezligi; n, ayl/min.	300	400	500	600	700	900	1200	1500	3000
Yo'l qo'yiladigan ko'chish amplitudası, A_d , mm	0,2	0,18	0,16	0,145	0,13	0,11	0,09	0,07	0,04

5. Izolyatsiyalayotgan ventilyator qurilmasining talab qilinadigan massasi m_t quyidagi shart asosida hisoblanadi:

$$m_t \geq (2,5\epsilon \cdot m_{ay,q}) / A_d , \text{ kg} \quad (2.17)$$

bu yerda $m_{ay,q}$ – aylanuvchi qismlar massasi, kg;

ϵ - aylanuvchi qismlar eksentrisiteti:

ventilyatorlar uchun: dinamik balansirovkada $\epsilon = 0,2 \dots 0,4$ mm;
statik balansirovkada $\epsilon = 1 \dots 1,5$ mm.

6. Talab qilinadigan massaga bog'liq ravishda titrashni izolyatsiyalovchi asos turi tanlanadi (rama yoki plita). Zarur holatlarda rama oraliqiga temir-beton quyish bilan massasi oshirilishi mumkin.

7. Ventilyator qurilmasining (ventilyator, elektr dvigateli, shkiv, musta, rama va boshqa qismlar to'plamining) to'g'ri burchakli koordinatalar X_0 , U_0 , Z_0 sistemasidagi og'irlik markazi koordinatalari aniqlanadi. Koordinatalar markazi ixtiyoriy ravishda tanlanadi. Koordinata o'qlari qurilmaning inersiya o'qlariga parallel ravishda o'tishi lozim:

X_0 o'qi - ventilyator g'ildirakinining aylanish o'qiga parallel;

Z_0 o'qi - vertikal tepaga;

U_0 o'qi – yuqoridagi ikkitasiga perpendikulyar joylanishi kerak.

Og'irlik markazi koordinatalari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

$$X_0 = \frac{\sum_{i=1}^{\xi} m_i \cdot x_{0i}}{m} ; \quad Y_0 = \frac{\sum_{i=1}^{\xi} m_i \cdot y_{0i}}{m} ; \quad Z_0 = \frac{\sum_{i=1}^{\xi} m_i \cdot z_{0i}}{m} ; \quad (2.18)$$

bu yerda m – ventilyator qurilmasining massasi, kg;

m_i - qurilmaning i - elementining massasi, kg;

x_{0i}, y_{0i}, z_{0i} - qurilma i - elementining X_0 , U_0 , Z_0 koordinatalar sistemasiidagi og'irlik markazlari koordinatalari, m;

ξ - ventilyator qurilmasi elementlarining soni.

8. Titrash izolyatorlarini joylashtirish o'rnlari tanlanadi. Amortizatorlar asosan, planda simmetrik ravishda, to'rtburchakning to'rtta burchagiga joylashtiriladi.

Ventilyator qurilmasi og'irlik markazining (X_0 , U_0 , Z_0) titrash izolyatorlari yuza tekisligidan balandligi h_s , hamda izolyatorlarning og'irlik markazidan uzoqlik masofalari b_x va b_y plandagi o'matilish chizmalar bo'yicha aniqlanadi.

2.3-ilovadagi 9-rasmida ventilyator qurilmalarining o'matilish chizmalarini planda keltirilgan.

9. Og'irlik markaziga nisbatan ventilyator qurilmasining inersiya radiuslari hisoblanadi, m:

$$i_x = \sqrt{I_x/m} ; \quad i_y = \sqrt{I_y/m} ; \quad i_z = \sqrt{I_z/m} \quad (2.19)$$

bu yerda I_x , I_y , I_z - og'irlik markazidan o'tuvchi o'qlarga nisbatan ventilyator qurilmasining inersiya momentlari.

Og'irlik markazidan o'tuvchi o'qlarga nisbatan ventilyator qurilmasining inersiya momentlari quyidagi formulalardan aniqlanadi, $\text{kg}\cdot\text{m}^2$:

$$I_x = \sum_{i=1}^{\xi} [I_{xi} + m_i(y_i^2 + z_i^2)]$$

$$I_y = \sum_{i=1}^{\xi} [I_{yi} + m_i(x_i^2 + z_i^2)] \quad (2.20)$$

$$I_z = \sum_{i=1}^{\xi} [I_{zi} + m_i(x_i^2 + y_i^2)]$$

bu yerda I_{xi} , I_{yi} , I_{zi} - ventilyator qurilmasi i - elementining shu element og'irlik markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momentlari, $\text{kg}\cdot\text{m}^2$;

m_i - ventilyator qurilmasi i - elementining massasi, kg;

x_i, y_i, z_i - i-element og'irlik markazining ventilyator qurilmasining og'irlik markazidan o'tuvchi X, U, Z koordinatalar sistemasidagi koordinatalari, m.

Ventilyator qurilmasi elementlarining (ventilyator, elektr dvigateli, rama, shkiv yoki mufta, va boshqalarni) o'z og'irlik markazlariga nisbatan inersiya momentlarini, amaliyot uchun yetarli darajadagi aniqlikda, taxminiy ravishda aniqlash mumkin. Bunda ular to'g'ri geometrik shaklga ega bo'lgan jismlar deb olinadi, masalan, ventilyator, elektr dvigateli, shkif va mufta silindrsimon deb, rama esa parallelepipedsimon deb qabul qilinishi mumkin (2.2-ilovaning 7-rasmiga qarang).

To'g'ri geometrik shaklga ega bo'lgan jismlarning inersiya momentlari quyidagi formulalardan aniqlanadi, $\text{kg}\cdot\text{m}^2$:

a) silindr uchun:

$$I_x = I_y = \frac{m_q}{12} (3r^2 + h_q^2); \quad I_z = \frac{m_q r^2}{2}, \quad (2.21)$$

bu yerda:

m_q – silindr massasi, kg;

r – silindr asosi radiusi, m;

h_q – silindr balandligi, m.

b) to'g'ri burchakli parallelepiped uchun:

$$I_x = \frac{m_n}{12} (b^2 + c^2); \quad I_y = \frac{m_n}{12} (c^2 + a^2); \quad I_z = \frac{m_n}{12} (a^2 + b^2); \quad (2.22)$$

bu yerda:

m_n – parallelepiped massasi, kg;

a, b, c – parallelepiped tomonlari o'lchamlari, m.

10. Ventilyator qurilmasining titrash izolyatorlariga tushadigan umumiy $P_{cm,yu}$ va bitta izolyatorga tushadigan P_{cm} statik yuklanishlar quyidagicha aniqlanadi, N:

$$P_{cm,yu} = \sum_{i=1}^{\xi} p_i, \quad (2.23)$$

$$P_{cm} = P_{cm,yu} / e, \quad (2.24)$$

bu yerda p_i – izolyatsiyalayotgan elementga tushayotgan i – yuklanish, N;

ξ – ventilyator qurilmasi elementlarining soni;

e – titrash izolyatorlarining (amortizatorlarning) soni.

11. Prujinali titrash izolyatorlarining ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi.

Siqilishga ishlaydigan prujinalarni tanlash bitta prujinaga 1500 N kam yuklanish tushadigan bo'lsa 2.6-ilovadagi jadval bo'yicha olib boriladi. Tanlash bitta titrash izolyatoriga tushadigan statik (ishchi) yuklanishning R_{max} va uskunaning vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlar chastotasining goz maksimal yo'l qo'yiladigan qiymatlariga bog'liq ravishda olib boriladi.

Jadvalda keltirilgan prujina tayyorlanadigan simning uzunligi ℓ quyidagi ifoda bo'yicha hisoblangan:

$$\ell = (i_u + 1,5) \sqrt{(\pi D)^2 + S^2}, \quad \text{mm} \quad (2.25)$$

bu yerda i_u – prujinaning ishchi o'rmlar soni;

D – prujinaning o'rta diametri, mm;

S – siqilmagan prujinaning qadami, mm.

Agarda bitta titrash izolyatoriga tushadigan haqiqiy yuklanish yo'l qo'yiladigan P_{\max} yuklanishdan kichik bo'lsa, uskunaning vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlar chastotasi g_{oz} maxsus grafik yoki quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$f_{oz} = f_{oz \min} \sqrt{P_{\max} / P_{cm}}, \quad \text{Gs} \quad (2.26)$$

Namunaviy prujinalarni qo'llash tavsiya etiladi (2.6-ilova).

Prujinalarning ishchi holatdagi o'lchamlari quyidagi ifodalardan aniqlanadi (-rasm):

a) prujinaning statik cho'kishi:

$$H_{cm} = P_{cm} / k_z, \quad \text{mm};$$

b) prujinaning to'la balandligi:


$$H_p = H_o - H_{cm}, \quad \text{mm};$$

v) prujina qadami:

$$S_{iOK} = (H_o - H_{cm}) / i, \quad \text{mm};$$

b) prujina cho'lg'amlari o'rtasidagi oraliq:

$$\Delta_{iOK} = S_{iOK} - d$$



I-rasm. Amortizator prujinasi o'lchamlari.

12. Tanlangan prujinalar uchun uskunaning vertikal o'q bo'yicha xususiy tebranishlar chastotasi f_{oz} 2.2-ilovaning 7-rasmidagi grafikdan yoki quyida keltirilgan ifodadan aniqlanadi:

$$f_{oz} = 0,5 \sqrt{k_z / P_{cm}}, \quad \text{Gs} \quad (2.27)$$

bu yerda k_z - bitta titrash izolyatorining vertikal yo'nalishdagi bikrligi, N/m;

P_{cm} - bitta prujinaga to'g'ri keladigan statik yuklanish, N.

Gorizontall tekislikdagi aylanma tebranishlar chastotasi quyidagicha aniqlanadi:

$$f_{\varphi} = \frac{b}{i_z} f_{oz} \sqrt{\eta}, \quad \text{Gs} \quad (2.28)$$

bu yerda b - ventilyator qurilmasining og'irlik markazidan titrash izolyatorlarigacha bo'lgan plandagi masofa (2.3-ilova, a va b rasmlari), m;

$$b = \sqrt{b_x^2 + b_y^2}$$

i_z - qurilmaning Z o'qiga nisbatan inersiya radiusi, m;

